XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 3 - avgust VI-38-20-4-58-K/21 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish va ko‘cha nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish va ko‘cha nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi Qamashi tuman hokimligiga MFY raislari tomonidan kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 18-martdagi2-son va 2021-yil 27-iyuldagi 4-son yig‘ilish bayonlari, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida 2021-yil 26-martdagi va 2021-yil 28-maydagi takliflari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2021-yil 31-maydagi 11/1623-son va 2021-yil 07-iyuldagi 11/2057-son xulosalari, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Qashqadaryo viloyat komissiyasining 2021-yil 31-maydagi 11/1623-son va 07-iyuldagi 11/2057-son xulosalariga muvofiq Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish va ko‘cha nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi va Qamashi tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Ro‘ziyeva)ning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obe’ktlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi tumani Mayda mahallasidagi Yorqin ko‘chasining nomi Mayda deb o‘zgartirilsin.

4. Qamashi tumani hokimining o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limiga (Bekmurzayev) bir hafta muddatda tuman hududidagi nomlari o‘zgargan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish, aholi o‘rtasida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish vazifasi yuklansin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) yangi nom berilgan va nomi o‘zgargan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (Haydarov), Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Omonova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Кенгаш раиси **Б.Тоғаев**

Халқ депутатлари Қамаши туман
кенгашининг
2021 йил 3 августдаги
VI-38-20-4-58-K/21-сон қарорига
1-илова

Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obe’ktlarning ro‘yxati

№	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Aholi punkti nomi	Obyekt turi	T/R	Ko‘cha nomi
1.	Mang‘it MFY	Shahar hududi	Ko‘cha	1.	Abu-al-Muti an- Nasafiy
			Ko‘cha	2.	Jaloliddin Rumiy
			Ko‘cha	3.	Uvaysiy
			Ko‘cha	4.	Nabi Rahimov
			Ko‘cha	5.	Komil Yormatov
			Ko‘cha	6.	Nabi G‘aniyev
			Ko‘cha	7.	Hamza Umarov
			Ko‘cha	8.	G‘ani A’zamov
			Ko‘cha	9.	Botir Zokiriov
			Ko‘cha	10.	O‘tkir Hoshimov
			Ko‘cha	11.	O‘rikzor
			Ko‘cha	12.	Yurtdosh
			Ko‘cha	13.	Olchazor
			Ko‘cha	14.	Toshkent yo‘li
			Ko‘cha	15.	Lalmiobod
			Ko‘cha	16.	Yoshlar
			Ko‘cha	17.	Labihovuz
			Ko‘cha	18.	Buyuk Turon
			Ko‘cha	19.	Xalqlar do‘stligi
			Ko‘cha	20.	Vatandosh
			Ko‘cha	21.	Manzilobod
2.	Navoiy MFY	Shahar hududi	Ko‘cha	22.	Paxtazor
			Ko‘cha	23.	Hunarmand
3.	Jonbo‘z MFY	Jonbo‘z qishlog‘i	Ko‘cha	24.	Yuqori Jonbo‘z
			Ko‘cha	25.	Namuna
			Ko‘cha	26.	Tarannum
4.	Kattao‘ra MFY	Kon	Ko‘cha	27.	Sangzor
5.	Sarbozor	Sarbozor	Ko‘cha	28.	Elbegi
			Ko‘cha	29.	Mirobod
			Ko‘cha	30.	Eskianhor
			Ko‘cha	31.	O‘rnak
		Qirqqiz	Ko‘cha	32.	Bog‘i Eram
			Ko‘cha	33.	Tokzor